

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**



**KOMPYUTERGA SERVIS XIZMAT KO'RSATISH**  
**O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	600 000	-	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
<b>Ta'lim sohasi:</b>	610 000	-	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari
<b>Ta'lim yo'nalishi:</b>	60610200	-	Axborot tizimlari va texnologiyalari (qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar)

Toshkent-2025

8.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> Adasheva M.U. - "Axborot tizimlari va texnologiyalari" kafedrasi dotsenti
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Zakirova S.A. - Kamoliddin Bexzod nomidagi MRDI "Ijtimoiy fanlar va informatika" kafedrasi dotsenti, texnika fanlari nomzodi. Sharipov M.S. - UrDU "Axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti, t.f.n.



Fan/modul kodi KSXKM4404	O'quv yili 2025-2026	Semestr 8	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Kompyuterga servis xizmat ko'rsatish	48	72	120

### I. Fanning mazmuni

Fanning o'qitishdan maqsad – Shaxsiy kompyuterlarning turlari, modellari va tavsiylari, tizimli platani tanlash va o'rnatish, qattiq disk, audio jihozlar, axborotni aks ettiruvchi tizimlar, tarmoq adapterini o'rnatish va sozlash, kompyuterni ishga tayyorlash, shaxsiy kompyuterlarni takomillashtirish va elektr ta'minoti buzilishlaridan himoya qiluvchi qurilmalarni o'rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi - Tizimli platani, audio va video hamda tarmoq adapterini tanlash va o'rnatishga, Windows operatsion tizimining fayl tizimlarini yaratish hamda ofisda qo'llaniladigan shaxsiy kompyuterlarni takomillashtirishdan iborat.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### 1-mavzu. Shaxsiy kompyuterlarning turlari, modellari va texnik ko'rsatkichlari

Kompyuterlar tasnifi. Kompyuterlarning asosiy texnik ko'rsatkichlari. Shaxsiy kompyuterlarning funksional bloklari. Shaxsiy kompyuterlarning konstruksiya elementlari.

2-mavzu. Dasturlar va apparat ta'minoti, interfeys tushunchasi, uning turlari  
Kompyuterning zamonaviy dasturiy ta'minoti, dasturiy ta'minot turlari: tizimli, amaliy va boshqalar. Dasturlar va apparat ta'minoti orasidagi bog'liqlik, interfeys tushunchasi, uning turlari.

#### 3- mavzu. Tizimli platani tanlash va o'rnatish

Tizimli plataning vazifasi va ishlash tamoyili. Tizimli platani tanlash va o'rnatish. Ichki va tashqi magistralar. Tashqi portlar.

#### 4-mavzu. Qattiq disk.

Qattiq disklardagi jamlagichlarning asosiy komponentlari va ko'rsatkichlari. Qattiq disklardagi jamlagichlarning ishlash tamoyili. Diskni bo'lish va

formatlash. Windows oilasi operatsion tizimlarining fayl tizimlari. Qattiq diskni o'rnatish. Vinchesterni sovitish tizimlari.

5-mavzu. Belgili va grafikli axborotlarni kiritish vositalari  
Belgili (simvolli) axborotlarni kiritish vositalari. Grafik axborotlarni kiritish qurilmalari. Maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatish.

6-mavzu. Axborotni hujjatlashtirish vositalari.  
Printer va boshqa chiqarish texnologiyalarining tasniflanishi. Grafik quruvchilar (plotterlar).

7-mavzu. Audio jihozlar.  
Tovush adapter. Akustik tizim. Tovush platasini o'rnatish.

8-mavzu. Axborotni aks ettiruvchi tizimlar  
Monitorlar va videoadapterlar. Monitorlarni ulash. Videoadapterni sovitish tizimi. Axborotni vizual aks etish vositalari. TV-tyuner platasini o'rnatish bosqichlari.

9-mavzu. Tarmoq adapterini o'rnatish va sozlash  
Lokal tarmoq turlari. Tarmoqlarni qurishning umumiy tamoyillari. Tarmoq adapteri va uning tavsiylari. Tarmoq adapterini o'rnatish. TCP/IP protokolini sozlash. Tarmoqda bo'lishi mumkin bo'lgan nomuvofiqlikni bartaraf qilish.

10-mavzu. Kompyuterni ishga tayyorlash  
SETUP BIOS dasturini sozlash. Windows operatsion tizimini o'rnatish. Operatsion tizimni qattiq diskdan o'rnatish. Drayverlarni o'rnatish va apparat komponentlarining ishlash xususiyatini tekshirish.

11-mavzu. Shaxsiy kompyuterlarni takomillashtirish  
Yangilash strategiyasi. Kompyuter komponentlari.

12-mavzu. Elektr ta'minoti qurilmalari  
ShKni elektr tarmog'iga ulash. Elektr tarmog'ini himoyalash qurilmalari.

### III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Zamonaviy kompyuterning dasturiy va apparat ta'minoti orasidagi bog'liqlik. Interfeys tushunchasi, uning turlari.
2. Kompyuterni qismlarga ajratish, tizimli blok qismlari bilan tanishish, Kompyuterga qo'shimcha yangi texnik qurilmalarni ulash.
3. Markaziy mikroprosessor turini aniqlash, profilaktik xizmat ko'rsatish.
4. Mikroprosessor brendlari: Intel, VIA, NVIDIA, Elbrus, Philips, Hitachi, Sun, AMD



Athlon va boshqalar bilan tanishish.

- Xotira va uning turlari. Kesh xotira, xotira ierarxiyasi.
- Windows operatsion tizimini kompyuterga o'rnatish.
- Tarmoq operatsion tizimlarini kompyuterga o'rnatish.
- Shakstlangan fayllar va disklar tiklash.
- Arxivlash dasturlari. RAR va ZIP arxivator dasturlar.
- Kompyuter viruslarining xarakteristikalarini, viruslarni aniqlash va ulardan himoya qilish dasturlari.
- Microsoft Office dasturlarining yangi versiyalarini kompyuterga o'rnatish.
- Ilovalarni o'rnatish va o'chirish. Windows XP/2003 Server operatsion tizimi.

#### IV. Fanning tarkibiy tuzilishi: 4.1. Ma'ruza mashg'ulotlar

Dars	Mavzular	Ma'ruza mashg'ulotlar rejas	Ma'ruza mashg'ulotlar soati
1	Shaxsiy kompyuterlarning turlari, modellari va texnik ko'rsatkichlari.	1. Kompyuterlar tasnifi. 2. Kompyuterlarning asosiy texnik ko'rsatkichlari.	2
2	Dasturlar va apparat ta'minoti, interfeys tushunchasi, uning turlari.	1. Kompyuterning zamonaviy dasturiy ta'minoti, dasturiy ta'minot turlari: tizimli, amaliy va boshqalar. 2. Dasturlar va apparat ta'minoti orasidagi bog'liqlik, interfeys tushunchasi, uning turlari.	2
3	Tizimli platani tanlash va o'rnatish.	1. Tizimli plataning vazifasi va ishlash tamoyili. 2. Tizimli platani tanlash va o'rnatish.	2
4	Qattiq disk	1. Qattiq diskdagi jamlagichlarning asosiy komponentlari va ko'rsatkichlari. 2. Qattiq diskdagi jamlagichlarning ishlash tamoyili.	2
5	Belgili va grafikli axborotlarni kiritish vositalari.	1. Belgili (simvolli) axborotlarni kiritish vositalari. 2. Grafik axborotlarni kiritish qurilmalari. 3. Maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatish.	2
6	Axborotni hujjatlash vositalari.	1. Printer va bosma chiqarish texnologiyalarining tasniflashi. 2. Grafik quruvchilar (plotterlar).	2

7	Audio jihozlar.	1. Tovush adapter. 2. Akustik tizim. 3. Tovush platasini o'rnatish.	2
8	Axborotni aks etuvchi tizimlar.	1. Monitorlar va videoadapterlar. 2. Monitorlarni ulash. 3. Videoadapterni sovitish tizimi. 4. Axborotni vizual aks etish vositalari. 5. TV-tyuner platasini o'rnatish bosqichlari.	2
9	Tarmoq adapterini o'rnatish va sozlash.	1. Lokal tarmoq turlari. 2. Tarmoqlarni qurishning umumiy tamoyillari. 3. Tarmoq adapteri va uning tavsiflari. 4. TCP/IP protokolini sozlash. 5. Tarmoqda bo'lishi mumkin bo'lgan nomuvofiqlikni bartaraf qilish.	2
10	Kompyuterini ishga tayyorlash	1. SETUP BIOS dasturini sozlash. 2. Windows operatsion tizimini o'rnatish. 3. Operatsion tizimni qattiq diskdan o'rnatish. 4. Drayverlarni o'rnatish va apparat komponentlarining ishlash xususiyatini tekshirish.	2
11	Shaxsiy kompyuterlarni takomillashtirish.	1. Yangilash strategiyasi. 2. Kompyuter komponentlari.	2
12	Elektr ta'minoti qurilmalari	1. ShKni elektr tarmog'iga ulash. 2. Elektr tarmog'ini himoyalash qurilmalari.	2
	Jami:		24

#### 4.2. Amaliy mashg'ulotlar

Dars	Mavzular	Amaliy mashg'ulotlar rejas	Amaliy mashg'ulotlar soati
1	Zamonaviy kompyuterning dasturiy va apparat ta'minoti orasidagi bog'liqlik. Interfeys tushunchasi, uning turlari.	1. Shaxsiy kompyuterlarning funksional bloklari. 2. Shaxsiy kompyuterning konstruksiya elementlari.	2



	<p>mavzularni o'rganadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Zamonaviy axborot texnologiyalarining asosini axborotga kompyuterli ishlov berish;</li> <li>• katta ma'lumotlar massivini elektron tashuvchilarda saqlash;</li> <li>• axborotni foydalanuvchiga qulay ko' - rinishda tezkor etkazish jarayonlari tashkil qilish;</li> <li>• axborot va texnik resurslardan jamoa bo'lib foydalanish;</li> <li>• axborotga ishlov berish, saqlash va uzatishning qog'ozsiz texnologiyasini yaratish;</li> <li>• kasbiy ko'nikmalarni olish va mustahkamlash;</li> <li>• zamonaviy boshqarish usullarini amalga oshirish;</li> <li>• texnik va dasturiy vositalar office masalalarini va muassasa vazifalarini echish;</li> <li>• Windows operation tizimining fayl tizimlari va Partition Magic dasturi yordamida yangi bo'limlarni yaratish kabi bilim va <i>ko'nikmalariga ega bo'ladilar</i></li> </ul>
4.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• individual topshiriqlar;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• interfaol "keys-stady"lar;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> </ul>
5.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ismni topshirish.</p> <p><b>Baholash:</b></p> <p>Fanning yakuniy bahosi uchta yo'nalishdagi baholarga asoslanadi:</p> <p>(1) Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (15%).</p> <p>Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, talabalar darslar boshlanishidan oldin onlayn o'quv materiallari bilan tanishgan bo'lishlari talab etiladi. Har bir talabdan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.</p> <p>(2) Auditoriyadagi mashg'ulotlar (15%)</p> <p>Har bir ma'ruza va amaliyot mashg'ulot bo'yicha topshiriqlar keying dars mashg'ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida berilgan topshiriqlarni bajarish (30%).</p> <p>(3) Yakuniy baholash (40%) (Baholash turi, vaqti, baholash mezonlari)</p> <p>Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash</p>

uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

• **joriy nazorat (JN)** – o'quv semestr davomida dasturining amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari bo'yicha talabalarining bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi 5 baholik tizim orqali baholanadi.

• **oraliq nazorat (ON)** – o'quv semestr davomida dasturining tegishli fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir, ikkimarta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

• **yakuniy nazorat (Yan)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch so'z va iboralariga asoslangan yozma, og'zaki, test va h.k. shakllarda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi buyicha talabaning bilimni baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan buyicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan buyicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasida yakuniy nazorat turlarini o'tkazilishi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli yakuniy nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning baho mezonini asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi 5 baholik tizim orqali ifodalanadi.

Talaba mustaqil xulosa va qarorlar qabul qila olsa, ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritisa, olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega deb topilganda-5(a'lo) baho bilan baholanadi.

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega deb topilganda

- 4(yaxshi) baho baholanadi.



Talaba olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega deb topilganda - 3(qoniqarli) baho baholanadi.

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega emas deb topilganda

- 2(qoniqarsiz) baho bilan baxolanadi.

Joriy nazorat va oralik nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi buyicha talabaning bilimini baxolash tegishli fan buyicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi.

Talabani oralik nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

JN, ON va Yan turlari kalendar tematik reja muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan baholash nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi.

Talaba uzrtli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Joriy nazorat va oralik nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi buyicha "2"(qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi buyicha "2"(qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qazrdor hisoblanadi.

Talaba baholash natijasidan norozi bulgan taqdirda, baholash natijasi e'ton qilingan vaktndan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega. Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi buyicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmagan ko'rsatiladi.

Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekan va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.

**Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari**

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. (Yakuniy nazoratni yozma, og'zaki, test va boshqa usullarda olish mumkin.)

<p>6.</p> <p style="text-align: center;"><b>IX. Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Noraliev N.X., Rasulov S.Sh.. "Axborot kommunikatsion texnologiyalar". Darslik. -Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA"2022.-444 b.</li> <li>2. Misty E. Vermaat, Susan L. Sebok, Steven M. Freund, Jennifer T. Campbell «Discovering Computers». Printed in the United States of America. 2016. -691p.</li> <li>3. Давронбеков Д.А., Писецкий Ю.В., Пулатов Ш.У., Хакимов З.Т.. «Передающие и приемные устройства систем мобильной связи». -Ташкент: «Mahalla va oila nashriyoti».2021.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Jo'rayeva Sh. va boshqalar. "Kompyuter tizimlari va xizmat ko'rsatish" / o'quv qo'llanma. - Toshkent: "Noshir". 2013 y.</li> <li>5. Jurayev L. "Kompyuter texnikasidan samarali foydalanish bo'yicha uslubiy talablar va lavsiyalar**" - Toshkent: O'qituvchi. 2012 y.</li> <li>6. Газаров А. "Устранение неисправностей и ремонт ПК своими руками на 100%" / - СПб.: Питер. 2011.</li> <li>7. McGraw-Hill, Osborne. CompTIA A+. Устройство, настройка, обслуживание и ремонт ПК. 3 изд. СПб.: Питер, 2010.</li> <li>8. Скотт Мюллер. Модернизация и ремонт ПК. 18-е издание.: Пер. с англ. М.: ООО «И.Д. Вильямс». 2009. 1280 с.</li> <li>9. Евсеев Г.А., Симонович С.В. Познай свой компьютер Диагностика, модернизация, настройка. СПб.: Питер. 2003. - 480 с.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>10. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.</li> <li>11. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</li> <li>12. <a href="http://ziyonet.uz">http://ziyonet.uz</a></li> <li>13. <a href="http://www.tuit.uz">http://www.tuit.uz</a></li> <li>14. <a href="http://www.etuit.uz">http://www.etuit.uz</a></li> <li>15. <a href="http://www.moodle.org">http://www.moodle.org</a></li> <li>16. <a href="http://Fledu.uz">http://Fledu.uz</a></li> <li>17. <a href="http://akt.uz">http://akt.uz</a></li> <li>18. <a href="http://elearning.zn.uz">http://elearning.zn.uz</a></li> <li>19. <a href="http://www.intuit.ru">http://www.intuit.ru</a></li> <li>20. <a href="https://www.ispring.ru/">https://www.ispring.ru/</a></li> <li>21. <a href="https://www.coursera.org">https://www.coursera.org</a></li> <li>22. <a href="https://ru.khanacademy.org/">https://ru.khanacademy.org/</a></li> <li>23. <a href="https://www.courselab.ru/">https://www.courselab.ru/</a></li> </ol>	<p>7.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2025 yil "4" iyul dagi 113-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
--	---